

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|--|-----|
| B.Sh.Shermuhammadov, X.N.Qosimova | |
| Kitobxonlik – buyuk kelajak kafolati | 8 |
| T.A.Egamberdiyeva | |
| Turkiy xalqlar milliy madaniyatlari shakllanishining ijtimoiy va etnopedagogik asoslari | 13 |
| N.T.To'xtaboyev | |
| Balandlikka sakrovchi sportchilar tayyorlaydigan murabbiylar o'ttasida anketa so'rovnomasи tahlili | 18 |
| I.B.Siddiqov | |
| Tarixiy-badiiy asarlar bo'lajak tarix o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning muhim omili sifatida..... | 25 |
| N.R.Gafurova, T.A.Egamberdiyeva | |
| Ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlik ko'nikmalarini rivojlantirishning maqsadli pedagogik tizimi | 28 |
| Sh.A.Mamajonov | |
| Oliy ta'lim muassasalarida ekologik tarbiyani amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirish..... | 32 |
| M.M.Kuzibayeva | |
| Vrach-shifikorning pedagogik faoliyatiga qo'yiladigan vazifalar..... | 37 |
| K.R.Abdullayeva | |
| Xalq pedagogikasi vositasida o'quvchilar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari | 39 |
| Sh.K.Xujamberdiyeva | |
| Maktabgacha yoshdag'i bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zamonaviy texnologiyalari | 43 |
| U.Q.Maqsudov, R.A.Abdullayev | |
| Talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini jadid pedagogikasi vositasida rivojlantirishning imkoniyatlari | 48 |
| R.Z.Xayrov | |
| Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarligida pedagogik tashxis va baholash mezonlari..... | 54 |
| G.U.Radjabova | |
| Ta'lim tashkilotining marketing strategiyasini shakllanishi..... | 61 |
| Г.К.Якубова | |
| Сравнительная динамическая двигательная потенциала детей с нормативными требованиями первой и второй возрастной групп тестов здоровья "Здоровье" | 67 |
| M.M.Xamroliev | |
| Fanlararo hamkorlik asosida o'quvchilar bilimini rivojlantirishning pedagogik asoslari | 73 |
| U.V.Mamadjanov | |
| Maktabda musiqa fanini o'qitishning metodologik asoslari | 76 |
| S.X.Kaxxarov | |
| Yoshlarda harbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari | 80 |
| X.X.Tojiyev | |
| Texnologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash | 85 |
| D.S.Sobirov | |
| Ta'limgagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va uning pedagogik jihatlari | 92 |
| D.Z.Isaboyeva | |
| Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik psixologik asoslari (Xalqaro baholash dasturi) | 96 |
| F.Q.Yusupjanova | |
| O'qituvchining pedagogik qobiliyatlari va uning komponentlari | 99 |
| X.A.Ustadjalillova | |
| Pedagogik tadqiqotlar metodlari va statistik gipotezalarning nazariy jihatlari..... | 102 |

**TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TOLERANTLIK
KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING MAQSADLI PEDAGOGIK TIZIMI**

**ЦЕЛЕВАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ
ТОЛЕРАНТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ВО ВРЕМЯ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА**

**TARGETED PEDAGOGICAL SYSTEM OF DEVELOPING TOLERANCE SKILLS IN
PRIMARY CLASS STUDENTS DURING THE EDUCATIONAL PROCESS**

Gafurova Nodira Ravshanovna¹

¹Farg'ona davlat universiteti ingliz tili kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Egamberdiyeva Turg'unoy Axmadjonovna²

²Farg'ona davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lrim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlik ko'nikmalaini rivojlantirishning maqsadli pedagogik tizimi o'rganilgan va yoritib berilgan. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bag'rikenglik, toqatlilik, chidamlilik ko'nikmalarini va o'zgalarni boricha qabul qilish dunyoqarashini shakllantirish orqali butun dunyoda tolerantlikni rivojlantirish maqsadli pedagogik tizim ekanligi o'rganilgan.

Аннотация

В данной статье изучена и освещена целенаправленная педагогическая система развития навыков толерантности у учащихся младших классов. Изучено, что это педагогическая система, направленная на развитие толерантности во всем мире путем формирования навыков толерантности, толерантности, выдержки и мировоззрения принятия других людей.

Abstract

In this article, the purposeful pedagogical system of developing tolerance skills in elementary school students is studied and highlighted. It has been studied that it is a pedagogical system aimed at developing tolerance in the whole world by forming the skills of tolerance, tolerance, endurance and worldview of accepting others.

Kalit so'zlar: tolerantlik, bag'rikenglik, boshlang'ich, sinf, iqtisodiyot, shakl, usul, vosita, soha, rivojlanish, ta'lrim, tarbiya, jamiyat, davlat, bolalar, o'quvchi, shaxs.

Ключевые слова: толерантность, толерантность, начальный, класс, экономика, форма, метод, инструмент, сфера, разведение, образование, воспитание, общество, государство, дети, ученик, человек.

Key words: tolerance, tolerance, primary, class, economy, form, method, tool, field, development, education, upbringing, society, state, children, student, person.

KIRISH

Jahonda uchinchi ming yillikda ijtimoiy munosabatlarning keskinlashuvi, milliy va etnik nizolarning kuchayishi, diniy qarama-qarshiliklarni kengayib borishi va boshqa toqatsizlik bilan bog'liq ziddiyatlar jamiyatlarda, insonlarda tolerantlik tafakkuri va ko'nikmalarini rivojlantirishni zaruratga aylantirmoqda. Mazkur masalalarni bartaraf etishning muhim bo'g'ini ta'lrim-tarbiya jarayoni, xususan maktab ta'limi hisoblanadi. Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bag'rikenglik, toqatlilik, chidamlilik ko'nikmalarini va o'zgalarni boricha qabul qilish dunyoqarashini shakllantirish orqali butun dunyoda tolerantlikni rivojlantirish mumkinligi kelib chiqmoqda. Shu bois jahonda professional maktab ta'limga tolerantlik ko'nikmalarini shaklantiruvchi muhim ahamiyatga ega fundamental asos sifatida qarash dolzarblik kasb etmoqda.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida va xalqaro ilmiy tadqiqot markazlarida ta'larning ilk bosqichidan o'quvchilarda tolerantlik ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-pedagogik, profilaktik tizimiga doir kontseptual izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan millatlararo tolerantlik madaniyatini amaliy ishlar orqali shakllantirishga doir rezolyutsiyalar va memarandumlar qabul qilinmoqda. Xususan, YuNESKO tomonidan 1995-yil 16-noyabr kuni «Tolerantlik tamoyillari Deklaratsiyasi»ni yaratilishi, BMT tomonidan 2003-yil «Dunyo miqyosida xalqaro tolerantlik yili» deb e'lon qilinishi va 16-noyabrni «Xalqaro tolerantlik kuni» sifatida

PEDAGOGIKA

nishonlanishning maqsadi dunyo xalqaro maydonida tolerantlik ko'nikmalarini o'stirishning zarurati borligini ta'kidlab beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tolerantlik tushunchasi turli tillarda turlicha talqin qilinadi va ta'riflanadi. Bunda o'sha xalq va millatning urf-odati, dunyoqarashi va mental xususiyati ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, xalqlarning tarixiy tajribasi ham narsa va xodisalarga bo'lgan munosabatiga ta'sir ko'rsatadi. G'arb mamlakatalarida tolerantlik kimga yoki nimaga nisbatan marhamatlilikni namoyon qila oshish va boshqa bir fikr, g'oyaning yashovchanligi uchun sharoitning mavjudligi ma'nosida keladi. Shuningdek, tolerantlik bag'rikeng faoliyat sifatida ekstrimizmga qarshilik ko'rinishidir.

O'zbek tadqiqotchilaridan biri M.Xajiyevaning fikricha, tolerantlik turli ijtimoiy va e'tiqodiy tafovutlarga ega insonlari va millatlarni bir biriga bog'lab, ular o'rtasida do'stona munosabatni va muhitni yaratish orqali ijtimoiy rivojlanishni ta'minlaydi. Tadqiqotchi Z.Husniddinov esa, bu tushunchaga quyidagicha ta'rif beradi: «tolerantlik umumiy ma'noda biror narsa, hodisani, o'zgacha fikr va qarashni, o'z shaxsiy tushunchalaridan qat'iy nazar, imkon qadar chidam va toqat bilan qabul qilishni anglatadi».

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining tolerantlik ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish, sifat o'zgarishlarini namoyon qilish borasida jadal islohotlar olib borilmogda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlik ko'nikmalarini, bag'rikenglik sifatlarini rivojlantirish metodlari bir necha guruhg'a bo'linadi, bular:

1. O'quvchilar bilim oladigan manbalar bo'yicha: og'zaki, ko'rsatmali, amaliy metodlar.
2. O'quvchi fikrining yo'nalishi bo'yicha: induktsiya, deduktsiya, analogiya.
3. O'quvchilarining mustaqil faoliyatlari darajasi bo'yicha: izohli-illyustrativ, reproduktiv, bilimlarni jumboqli bayon qilish metodi, qisman izlanish va tadqiq qilish metodi.

Tolerantlikni shakllantirishda og'zaki metodlar qisqa muddat ichida hajmi bo'yicha eng ko'p axborot berish, o'quvchilar oldiga jumboqlar qo'yish, ularni hal qilish yo'nalishlarini izlab topishiga ko'maklashish, umuman olganda o'quvchini og'zaki ishlash qobiliyatini rivojlantirishga imkon yaratadi. Bu metodlar o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda o'ziga xos pedagogik psixologik sharoit yaratadi. Ularni, ya'ni og'zaki metodlarni o'z xususiyatlari bo'lib ular haqida fikrashamiz:

Kichik maktab o'quvchilarida tolerantlikni shakllantirishda tushuntirish metodining samaradorlik darajasi shundan iboratki, bunda o'qituvchi materialni sodda tilda bayon qiladi, o'quvchilar esa bilimlarni tayyor holda qabul qilib olishadi. O'quv materiali aniq, tushunarli, qisqa ifodalanishi lozim. Tushuntirish metodidan ma'lumotlar tariqasidagi nazariy materiallar bilan tanishtirish, o'quvchilarga o'quv qurollarini ishlatalish bo'yicha yo'l-yo'rqlarni berishda foydalaniladi.

Boshlang'ich ta'lilda tolerantik bilan bog'liq vaziyatlar, ahloqiy jihatlarini og'zaki tushuntirish usuli bilan bayon qilish ma'qul. Og'zaki tushuntirish usulida zamonaviy axborot - texnologiyalari, maxsus gadjetlardan ham oqilona foydalanish mumkin.

Eng ko'p tarqalgan va yetakchi o'qitish metodlaridan bo'lib, darsning har xil bosqichlarida, har xil maqsadlarda qo'llaniladi, ya'ni yangi materialni bayon etish, mustahkamlash, takrorlashda, uyga berilgan topshiriplarni, mustaqil ishlarni tekshirishda qo'llanilishi ahamiyatlidir.

Suhbat – o'qitishning savol-javob metodidir, bunda o'qituvchilar kichik maktab o'quvchilarining tolerantligini va bag'rikenglik sifatlarini va amaliy tajribalariga tayangan holda maxsus tanlangan savollar tizimi va ularga beriladigan javoblar yo'li bilan o'quvchilarni qo'yilgan ta'limiy va tarbiyaviy masalalarni hal qilishga olib keladi.

O'qitishda suhbatning kategizik va evristik suhbat turlaridan foydalaniladi. Kategizik suhbat shunday savollar sistemasi asosida tuziladiki, bu savollar ilgari o'zlashtirilgan bilimlar qayta eslashni talab qiladi. Bunda asosan bilimlarni tekshirish va baholash, yangi materiallarni mustahkamlash, takrorlash amalga oshiriladi. O'qituvchi o'quvchilarga tayyor bilimlarni bermaydi, balki qo'yilgan savollar orqali ularning o'zlarini oldingi bilimlari hamda kuzatishlari asosida yangi tushunchalar, xulosalarga kelishiga olib keladi.

O'qituvchi bilimlarni tushuntirishni hikoya (ertak) ko'rinishida amalga oshirishi mumkin. Bundan asosan tolerantlikka, bag'rikenglik fazilatini tarixiy kelib chiqishi va tarixda namoyon bo'lishiga oid ma'lumotlarni berish uchun foydalaniladi. Berilayotgan hikoya bola kundalik hayotda duch kelayotgan voqe-a-hodisalar, unsurlar hamda uni o'ylantirayotgan masalalar ishtiropida bo'lsa, albatta uning samaradorligi yuqori bo'ladi.

O'qitishning bu usuli o'quvchilarga kuzatishlar asosida bilimlar olish imkonini beradi. Kuzatish hissiy tafakkurning ko'rinishi bo'lib, boshlang'ich sinflarda undan keng va samarali foydalanish zarur. Atrof borliqdagi predmet, hodisalar va ularning turli-tuman modellari, har xil tildagi ko'rsatma qo'llanmalar kuzatish ob'ektlari hisoblanadi. O'qitishni ko'rsatma metodlarini o'qitishning og'zaki pedagogik metodlari bilan uzviy bog'liqdir. Ko'rsatma qo'llanmalarni namoyish qilishni har doim o'qituvchining va o'quvchilarining tushuntirishlari bilan birgalikda olib borish ijobjiy samaraga erishishga xizmat qiladi.

MUHOKAMA

boshlang'ich ta'limga o'quvchilarida tolerantlik ko'nikmalarini shakllantirishda ta'limga tizimining mavjud holati, o'qitish tamoyillari isloh qilishni talab etmoqda. Yangi rivojlanish bosqichida ta'limga tizimini tubdan isloh qilish jarayonida o'quvchilarida toqatlilik, chidamlilik va bag'rikenglilik fazilatlarini shakllantirish muhim vazifalardan ekanligi kelib chiqmoqda. Shuningdek, oila muhitida ham oliyanoblik va bag'rikenglilik sifatlarining shakllanishi bolani mакtab ta'limga tolerantliklari namoyon qilishiga asos bo'ladi. Ota-onalar nafaqat tolerantlik quruvchisi, balki farzandlar tolerantligining ham quruvchisi hamda butun oiladagi tolerant muhit quruvchisi hisoblanadi. Ota-onalar va pedagoglar haqiqiy tolerant bo'la olgandagina, oilada, ta'limga muhitida tolerant muhit yaratiladi, bolada esa tolerantlik axloqi tarbiyalanadi.

O'zbekiston aholisi mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat barqarorligiga diniy extremizm va fundamentalizm, korruptsiya va poraxo'rlikni eng ko'p xavf tug'diradi, deb baholaydi. Ayni vaqtida O'zbekistonliklarni umuman jamiyat uchun katta xavf tug'diruvchi salbiy holatlar tashvishga soladi. Bizning fikrimizcha, O'zbekiston barqarorligiga xavf tug'diradigan salbiy holatlar o'z navbatida millatlararo munosabatlarga ham asosiy tahdidlar hisoblanadi. Bunday xavflarga qarshi olib borilayotgan ta'sirchan kurash choralar, aholi o'tasida tashvishlanish holatlarini pasaytirishga va kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuning uchun ham mакtab ta'limga orqali o'quvchilarining tolerant tafakkurini shakllantirish, bu orqali ularda tolerantlik ko'nikmalarini rivojlanish dolzarblik kasb etmoqda. Shu bois ta'limga tizimiga yangicha yondashuvni olib kirish, avvalo tolerant ijtimoiy ta'lit muhitini yaratish vazifalari yuzaga chiqdi.

Buning uchun pedagog va o'quvchilarida tolerantlikning bir kancha ko'nikma va qobiliyatlarini shakllantirish zarur. Ularga quyidagilar kiradi:

- tolerant fikr bildirish va o'z nuqtai-nazarini shaxsiy mulohaza sifatida himoya eta olish qobiliyati;
- boshqalarning fikriga tolerant munosabatda bo'la olish qobiliyati, ya'ni o'zining shaxsiy fikridan qanchalik farq qilishiga qaramasdan, boshqalarning ham o'ziga xos fikri borligi va ular ham o'z fikrlarini bildirish huquqiga ega ekanliklarini tan olish;
- qarama-qarshi nuqtai nazarlar bildirilganda, fikrlar aytilganda, fikrlar to'qnashuvi yuz berganda toqatli va chidamli bo'la olish qobiliyati.

XULOSA

Boshlang'ich ta'limga o'quvchi individualligini, o'ziga xos xarakterini, ahloqiy sifatlarini tartibga soluvchi, ularni amaliy ahamiyatini ko'rsatib beruvchi asosiy bo'g'in sanaladi. Bolaning xarakteri, undagi tolerant munosabatlarning namoyon bo'lishi boshlang'ich ta'limga tizimidan boshlanadi. Oiladagi tolerant muhit, ota-onalar tomonidan berilgan tarbiyaning amaliy natijasi ta'limga dargohida sinovdan o'tdi va shu yerda sayqallanib, to'ldirilib borildi.

Bolalar mакtabga qatnay boshlashi bilan yangi, notanish sharoitlarga tushishi, bilimlarning yetishmasligi, takroriy muvaffaqiyatsizlik holatlari o'zlariga ishonchszlikni keltirib chiqaradi. Bu jarayonda o'quvchilarining birgalikda o'qib-o'rganishi, o'ynashi, fikr almashishi va muhitga moslashishi bilan yo'qolib boradi. O'ziga ishonch, fikrda sobitlik xususiyatlari 3-sinfdan boshlab mustahkamlanadi va bu o'zgarishlar ularni muvaffaqiyatga yetaklaydi. O'ziga ishonch va sobit fikrlik hususiyatlari o'quvchilarida tolerantlik ko'nikmalarini shakllantirildi.

REFERENCES

1. Ravshanovna, G. N. (2022). THE STUDY OF THE MEANING OF THE WORD TOLERANCE IN OTHER LANGUAGES. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 3, pp. 8-9).
2. Ravshanovna, G. N., & Ahmadjanovna, E. T. U. (2021). Methodological characteristics of formation of tolerance skill pupils in primary school. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 1623-1628.
3. Ravshanovna, G. N. (2021). Methods of development tolerance skills pupils in primary school. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 1221-1224.

PEDAGOGIKA

4. Ravshanovna, G. N. (2022). TOLERANCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS PEDAGOGICAL MODEL OF SKILLS DEVELOPMENT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 95-96.
5. Ravshanovna, G. N. (2020). The Main Directions Of Developing Tolerance Skills Of Primary School Pupils. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 2020.
6. Ravshanovna, G. N. (2023). BOSHLANG ‘ICH TA’LIM JARAYONIDA TOLERANTLIKNI TARBIYALASH USULLARI VA VOSITALARI. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 975-980.
7. Ravshanovna, G. N. (2019). TRAINING THE PRIMARY SCHOOL TEACHERS TO INNOVATION ACTIVITIES IN HIGHER EDUCATION SYSTEM. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).
8. Ravshanovna, G. N., & Anvarovna, Y. D. (2022). INGLIZ VA OZBEK TILLARIDAGI TURIZMDAGI ATAMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLARI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 3, pp. 14-17).
9. Teacher, G. N. R. E. THE IMPORTANCE USAGE OF EXTENSIVE READING Gafurova NR (Republic of Uzbekistan) Email: Gafurova339@ scientificext. ru. UIF-2022, 8.
10. Qizi, O. S. S., & Ravshanovna, G. N. (2022). The scope of neologisms in science fiction. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(5), 1149-1151.
11. Гафурова, Н. Р. (2019). Use of modern technologies in the foreign language lessons in primary education. *Молодой ученый*, (15), 256-258.
12. Ravshanovna, G. N. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARIDA KO ‘P MADANIYATLI TA’LIMNING MOHIYATI, MAZMUNI VA BAG ‘RIKENGLIK SHAKLLARI. O’ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMİY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(19), 967-971.